

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIG'INING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN


3
2023
(May-Iyun)



www.pubedu.uz
<https://t.me/xalqtalimijn>



O'QIGAN KISHI, YANGI FIKR, YANGI G'OYA VA TASHIABBUSLAR BILAN YURADI



“XALQ TA'LIMI” ilmiy-metodik jurnali

Obuna indeksi: 904

“XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI” jurnali

Obuna indeksi: 924

Maqolalarni taqdim qilish uchun manziliimiz:

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi – 30.

Tel.: (99893)528-90-47; (99890)009-96-92; 994-77-88

t.me/xalqta.uz

www.pubedu.uz



HURMATLI USTOZ VA MURABBIYLAR!

“Xalq ta'limi” ilmiy-metodik va “Xalq ta'limi axborotnomasi” jumallari bugungi kunda o'qituvchi-pedagoglarning eng kerakli nashriga aylanib, ularga yaqin ko'makchi bo'lib kelmoqda. Uning sahifalarida nashr etilayotgan maqolalardan o'qituvchilar dars jarayonida, mashg'ulotlarda, seminar-treninglarda foydalanayapti.

2023-yilda jumallaringiz o'z faoliyatini yanada takomillashtirishni maqsad qilgan. Sahifalarimizda uzluksiz ta'lim tizimidagi eng so'nggi yangiliklar, texnologiyalar, metodlar ilmiy metodik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Shu bois, jumallaringiz har bir o'qituvchi-pedagog qo'lida bo'lishi maqsadga muvofiq.

2023-yil uchun obuna davom etadi. “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik va “Xalq ta'limi axborotnomasi” jumallariga obuna bo'lishni unutmang!

Obuna indekslari:

“Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnali – 904

“Xalq ta'limi axborotnomasi” jurnali – 924

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

	TAHRIRIYAT
	4
	TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
F. Kuchkarova	Talabalarni sanogen tafakkurini rivojlantirish omillari
M. Xasanova	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish
N. Turdiyev	Bo'lajak o'qituvchilarda daxldorlik hissini shakllantirish
J. Xamidov	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida innovatsion klaster yondashuvi asosida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish
N. Valiyeva	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlar
	TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
X. Orzikulov	Talabalarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika fanini o'qitish misolida)
A. Qosimov	Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari va uning xususiy metodikadan farqi
M. Boratova, O. Ishboeva	Biologiyani o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning uzviyligi va uyg'unligi
	TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
N. Temirov	Oliy ta'lim sifatini baholashning xorijiy modellari va o'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tahlili
	ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
N. Abdunazarova	Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuv va ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari
D. Pulatova	Oliy ta'limda aralash ta'limni tashkil etish tendensiyalari
D. Farsaxonova	Oliy ta'limda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
	MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
B. Narzullaeva	Mahallalarda millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish
S. S. Meliboyeva	Milliy hunarmandchilik – voyaga yetayotgan qizlarni ijtimoiylashtirish omili sifatida
B. Xusanov	Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash metodikasi
	TA'LIMDA MENEJMENT
N. Abdullaeva	Maktabgacha ta'limda menejment, zamonaviy yondashuv va samarali shakllar
Z. Mahmudova	Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonlarni maqsadli boshqarishning dolzarb vazifalari
	TA'LIMDA MARKETING
Sh.Y. Yusupova	Moliyaviy savodxonlikni shakllantirish pedagogik muammo sifatida: pisa tadqiqoti tahlillari

OLIV TA'LIMDA ARALASH TA'LIMNI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Jahonning bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak mutaxassislarda kasbiy, shu jumladan tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda ayniqsa, an'anaviy o'qitishga muqobil texnologiyalar (Face-to-face learning, Distance Education, E-Learning)ni takomillashtirish borasidagi tadqiqotlar muhim o'rin egallamoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda oliy ta'lim muassasalarida, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida elektron ta'lim vositalarini samarali qo'llash orqali ularning kasbiy, xususan AKTdan foydalanish hamda tadqiqotchilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish amaliyotini keng joriy etish muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar. Aralash ta'lim, blended learning, AKT, masofaviy ta'lim, onlayn, "jonli" muloqot

In a number of leading higher education institutions of the world, large-scale scientific research aimed at the development of professional competencies of future specialists using modern information and communication technologies is being conducted. Research on improving alternative technologies to traditional teaching (Face-to-face learning, Distance Education, E-Learning) plays an important role in this. From this point of view, in higher education institutions, in the process of preparing future specialists for professional activity, it is important to widely introduce the practice of forming their professional, including computer modeling, competencies through the effective use of electronic educational tools.

Key word: mixed education, blended learning, ICT, distance education, online, "live" communication

В ряде ведущих высших учебных заведений мира проводятся масштабные научные исследования, направленные на развитие профессиональных компетенций будущих специалистов с использованием современных информационно-коммуникационных технологий. Важную роль в этом играют исследования по совершенствованию технологий, альтернативных традиционному обучению (очное обучение, дистанционное обучение, электронное обучение). С этой точки зрения в высших учебных заведениях в процессе подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности важно широко внедрять практику формирования у них профессиональных, в том числе компьютерного моделирования, компетенций за счет эффективного использования электронных средств обучения.

Ключевые слова: смешанное обучение, смешанное обучение, ИКТ, дистанционное обучение, онлайн, «живое» общение.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasi rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Mustaqil O'zbekistonimizda oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa shak-shubhasiz, hozirdanoq o'z natijasi va samarasini berayotir. O'tgan yaqin yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy ta'limni yanada rivojlantirish to'g'risida bir qator muhim qaror va farmonlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi

maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108-son, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risda"gi 08.10.2019-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son farmonlari tasdiqlandi. Konsepsiyada bir qator muhim vazifalarni 2030-yilga qadar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Shu jumladan, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalari ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, barcha oliy ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab borish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.[1] Ushbu farmon hamda oliy ta'limga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda "Aralash ta'lim sharoitida maxsus pedagogika yo'nalishi talabalarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari" mavzusida olib borilayotgan tadqiqot ishimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) inson faoliyatining barcha sohalari, shu jumladan ta'limda faol qo'llamay tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimizning bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlarida ta'lim jarayonida AKTdan keng foydalanish zarurati alohida qayd etilgan.

Bugungi kunda ta'lim sohasida AKT vositalarini qo'llashning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri "aralash ta'lim" (Inglizcha «blended learning»)dir. Bu "jonli" o'rganish va "ikkinchi avlod" deb ataladigan Internet-resurslari orqali o'rganishning aralashgan kombinatsiyasi bo'lib, o'qituvchilar va talabalar birgalikda o'quv jarayonini amalga oshirish imkon beradi.

Pedagogik amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik O'zbekistondagi OTMlarida o'quv fani bo'yicha, uning yordamida ma'lumotni translyatsiya qilish yoki ushbu materialni onlayn tarzda olish mumkin bo'lgan elektron uslubiy majmuadan foydalanish imkoniyatini ochadigan aralash ta'lim modeli qo'llaniladi.

Aralash ta'lim zamonaviy ta'limning nisbatan yangi va tobora ommalashib borayotgan shakli sanalib, onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida auditoriyada ta'lim olishga asoslangan o'qitish shaklidir.

Umumiy o'qish vaqtining 30% dan 80% gacha bo'lgan qismini o'qituvchi va talabalar onlayn tarzda o'tkazilgan ta'limnigina aralashgan deb aytish mumkin[2]. Aralash ta'lim masofaviy ta'limga o'xshash, ammo aralash ta'limda talabalarining o'qituvchi va o'zaro "jonli" muloqot qilishi majburiyligi bilan farqlanadi. Bu bir vaqtning o'zida an'anaviy va masofaviy ta'limning afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi.

Shunday qilib, kelajakda aralash ta'lim ta'limning an'anaviy shakllari orasida ye-

takchi o'rinni egallaydi va raqobatbardosh oliy ta'lim muassasalarining Internet resurslaridan "jonli" muloqot bilan birgalikda foydalanish orqali ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi asosiy afzalliklaridan biriga aylanadi deb taxmin qilish mumkin.

Xorij tajribasi. So'nggi yillarda «aralash ta'lim» termini haqida turli fikr va qarashlar mavjud bo'lib, ushbu terminning soha olimlari tomonidan keltirilgan ta'riflarini o'rganish orqali tadqiqotimiz davomida bu usulning maqsad va vazifalarini aniqlashtiramiz.

Endilikda telekonferens aloqa dasturlari odatiy tusga aylanganligi sababli, M.Frizn «yuzma-yuz»ni «hamkorlikda ishlash» (co-present) deb qayta belgilashni taklif qildi. M.Frizn «aralash ta'lim»ni Internet va raqamli media vositalarini sinf darslari bilan birlashtirish orqali taqdim etiladigan imkoniyatlar qatoriga kiritadi, bunda o'qituvchi va talabalarning dars jarayonida ishtirok etishi talab qilinadi.

Ushbu ta'rif va ko'rsatmalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda vazifalar onlayn tarzda berilishi kerakligi ta'kidlanmoqda, ya'ni talabalar tadqiqot uchun internetdan foydalanishini taklif etayotgan an'anaviy yuzma-yuz kursi aralash ta'limga mos kelmaydi. «Supervised brick-and-mortar location» iborasi «yuzma-yuz» o'qitish elementi an'anaviy sinf xonasida bo'lishi shart emasligini anglatadi. Uotson va Murin Staker boshqa tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ta'rifning kengaytirilgan versiyasini taqdim etadilar: «aralash ta'lim — rasmiy ta'lim dasturi bo'lib, bunda talaba vaqt, joy va yo'l ustidan o'z-o'zini nazorat qilish elementlari mavjud bo'lgan qisman onlayn, shuningdek, uydan uzoqda joylashgan maskanda an'anaviy ta'lim (Brick and Mortar Education) va har bir talabaning fan doirasidagi o'rganish usullari tajribasi orqali ta'lim integrasiyasini ta'minlash jarayonidir» [3].

Rus tadqiqotchilaridan Krasnova fikriga ko'ra, aralash ta'lim - o'qitishning eng samarali usullarini yuzma-yuz va onlayn interfaol o'zaro ta'sirni birlashtirgan o'quv uslubi bo'lib, bu doimiy bir-biriga bog'liq holda ishlaydigan va bir butunlikni tashkil etadigan tizimdir.

Tadqiqotchi A.S.Fominaning qayd etishicha: "Aralash ta'lim onlayn ta'limning ana'anaviy ta'lim bilan uyg'unlashuvi, an'anaviy shakllarni elektron texnologiyalar bilan integratsiyalashuvidir". A.S.Fominaning fikricha, aralash ta'limning asosiy elementlari: «yuqoridan pastga» qurish (ya'ni tartibga solingan); diskretlik; o'quv jarayonining didaktik va tashkiliy funksiyalarini o'zida mujassam etgan LMS (Learning Management System - ta'limni boshqarish tizimi) orqali texnologik amalga oshiriladi; maxsus tashkil etilgan qo'llab-quvvatlash va boshqarish; talabalarning elektron muhitda mustaqil ishlarini tashkil etish.

«O'qish va o'qitish samaradorligini oshirishda, oldindan tayyorlangan onlayn darslar va o'quv xonasida yuzma-yuz (face-to-face) an'anaviy o'tiladigan darslarning birlashuvini tashkil etuvchi o'quv jarayoni - aralash ta'limdir». O'quv jarayonida qo'llaniladigan onlayn elementlar qo'shimcha sifatida emas, balki aksincha, aralashgan ta'limda ham virtual, ham yuzma-yuz o'qitishning eng samarali usullarining integrasiyasini talab qiladi.

Aralash ta'limni ko'plab ta'riflarini tadqiq etar ekanmiz, ularning barchasida aralash ta'lim an'anaviy va masofaviy o'qitishning turli modellarini birlashtirgan va texnologiyaning bir nechta shakllaridan foydalanadigan o'quv strategiyasi sifatida ta'kidlanganini kuzatdik. Aralash ta'lim talabalar va o'qituvchilarning o'zaro muloqoti orqali o'quv natijalarini faollashtirish maqsadida ma'lumot almashishi uchun bir nechta usullardan foydalanadigan dastur sifatida belgilangan.

2006 yili ushbu atama Bonk va Gremning «Aralash ta'lim to'g'risida» qo'llanmasi-

da ilk bor aralash ta'limning aniq tasnifi va uning asosiy xususiyatlari berilgan: aralash ta'lim — yuzma-yuz o'qitish va kompyuter yordamida o'qitishning kombinasiyasiga asoslangan ta'lim tizimidir[4].

Y.Banados keltirgan ta'rif ko'proq oliy ta'lim tizimiga taalluqlidir: «Aralash ta'lim — muayyan vazifalar uchun o'zgarib turadigan texnologiyalar va birgalikdagi auditoriya ishlarining kombinasiyasi. Ushbu yondashuv kompyuter yordamida bilimlarni taqdim etish, o'qitish va ta'limni o'lchashning afzalliklarini tan oladi, ammo natijalarni yaxshilaydigan yoki xarajatlarni kamaytiradigan to'liq, muvozanatli dastur yaratish uchun boshqa vositalardan ham foydalanish mumkin».

Xizer Steyker va Maykl Xorn o'zlarining «Blended Learning» («Aralash ta'lim») kitobida (Kleyton Kristensen instituti tadqiqotchilari) ta'lim berishda muvaffaqiyatli qo'llaniladigan ikki asosiy yondashuvini taklif etishadi:

1. Moslashtirilgan ta'lim yondashuvi.

Ushbu yondashuv yordamida har bir talaba o'quv jarayonida o'z yo'li bo'yicha, o'z tezligida, o'z qiziqishlariga rioya qilgan holda harakat qilish imkoniyatiga ega. Moslashtirilgan yondashuv, talabalar kerak bo'lganda kichik o'quv guruhlarini loyihalarida ham, individual o'rganishda ham tajriba olishlari mumkin, deb taxmin qilishadi. Ushbu tushunchada o'qituvchi o'quv muhitida o'quvchiga maslahatchi bo'lib, jarayonning mohiyatini tushunishiga yordam beradi va uni mavzu doirasida fikr yuritishga o'rgatadi.

2. Kompetentlikka asoslangan ta'lim.

Talabalar keyingi bosqichga o'tishdan oldin mavzuni yaxshi bilishi, qo'llay olishi yoki bilim, ko'nikma, malakalarni egallagan bo'lishi lozim. Talaba har bir mavzuni ketma-ket o'rganib, mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlab borishi kerak. Kompetentlikka asoslangan ta'lim mavjud muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishda talabani qat'iyatli va sabrli bo'lishga undaydi [5].

Aralash ta'limda raqamli o'quv resurslar ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash muhim ahamiyatga ega. Aralash ta'limni amalga oshirish pedagogdan yuqori malakani talab etadi, bunda:

AKT kompetentligi yuqori bo'lishi, axborot texnologiyalari texnik va dasturiy vositalaridan samarali foydalanish, ta'limni boshqarish tizimlarini bilish;

fan bo'yicha o'quv kontenti (mazmuni)ni mustaqil ishlab chiqish, ammo har qanday o'quv resurslar ham aralash ta'lim tizimi uchun mos kelmasligi mumkin;

har bir talaba imkoniyatini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish.

Kleyton Kristensen instituti aralash ta'lim asosida o'qitilayotgan ikki yuzga yaqin maktablarda tajribalar o'tkazib, qirqqa yaqin modellarni ishlab chiqqan. Institut aralash ta'lim ta'rifi, modellari, amaliyotda qo'llash usullari kabi nazariy muammolarni batafsil o'rganib, aralash ta'lim bo'yicha bir qator ishlarni nashr etgan.

AQSHning Brigan Yang universiteti professori Charlz Grem aralash ta'lim modellari to'rt o'lchov, to'rt daraja va uch turga ko'ra tasniflashni taklif qildi. Uning bu to'rt o'lchovi oddiy bo'lib, makon (yuzma-yuz/virtual), vaqt (sinxron/asinxron), aksariyat sezgi a'zolarining ishtiroki (yuqori, barcha sezgi a'zolar/ past, faqat matndan iborat) va inson ishtiroki (insonning ustunligi, texnika / inson omilining pastligi, texnikaning ustunligi). Bu bimodal yetkazib berish orqali belgilangan aralash ta'lim g'oyasi bilan bog'liq. Ikkinchi va butunlay boshqacha tasniflash elementi uning darajasi: faoliyati, kursi, dasturi va ta'lim muassasasi hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Aralash ta'lim individual o'quv faoliyatida qo'llangan metodlardan butun muassasada qo'llash jihatidan farq qiladi.

Charlz Grem maqsadga bog'liq bo'lgan aralash ta'limning uch toifasini ko'rsatib o'tdi:

- 1) foydalanish va moslashuvchanlikka yo'naltirilgan aralashtirish imkoniyatlari;
- 2) an'anaviy pedagogikani takomillashtirishga qaratilgan aralashtirish;
- 3) pedagogikani o'zgartirishga qaratilgan hamda o'zgaruvchan aralashtirish.

Grem fikricha, talabalar o'z bilimlarini shakllantirishda yanada faolroq ishtirok etishlari mumkin. Bu yerda aniq yopiq iyerarxiya mavjud bo'lib, unda transfonmatsiya eng maqbul yechim hisoblanadi. Shuning uchun Grem tipologiyadagi modallik usullardan tashqariga chiqib, ham ko'lamini, ham pedagogik maqsadini hisobga oldi [6].

U aralash ta'limni qabul qilish uchun olti asosni keltirdi:

1. Pedagogik samaradorlik.
2. Bilim olishga imkoniyat.
3. Ijtimoiy aloqalar.
4. Shaxsiy ishtirok.
5. Iqtisodiy samaradorlik.

Ulardan 1-, 2- va 5-asoslar eng mashhur sabablar deb topildi. Dastlab Kris Prokter, shuningdek Aleksey Xaynse aralash ta'lim to'liq bo'lmagan sirtqi o'qishda ta'lim olayotgan talabalar uchun bilim olish imkoniyatini yaxshilaydi, deb ta'kidlaydilar. Grem bilim olish imkoniyatini yaxshilanganligini ko'rsatadigan tadqiqotlar tahlili natijasida yuqoridagi ilmiy nazariyani ilgari surdi.

Iqtisodiy samaradorlikka kelsak, bu bir oz munozarali masala. Grem investisiyalar yuqori daromad keltirishi haqida ma'lumot beradi. Rebekka Launer aralashgan ta'lim arzon ekanligini rad etadi, chunki materiallarni moslashtirish xarajatlari, AKT infratuzilmasi narxi, texnik yordamga ehtiyoj va talabalarga o'qitishni qo'llab-quvvatlashni qisqartirishning mantiqiy emasligi kabi jihatlar mavjud. Grem va Chak Dzyubanning ta'kidlashicha, aralash ta'limni joriy etishda xodimlarning qisqarishi moliyani tejashning asosiy manbai hisoblanadi.

Eng katta munozaralar pedagogik samaradorlik bilan bog'liq. Aralash ta'limning afzalligidan biri shundaki, u turli o'quv uslublarini birlashtirish imkoniyatiga ega. Ma'ruza misolida muammoning mohiyatiga nazar solamiz. Ma'ruzaning oliy ta'limda tutgan o'рни birmuncha vaqtdan beri munozarali bo'lib kelmoqda, vaholanki, bu hali ham bilim berishning keng tarqalgan usuli hisoblanadi. U asosan bir xilligi va samarasizligi tufayli jiddiy tanqid ostiga olingan.

"Ma'ruzani yozib olish (Lecture capture)" talabalarga ma'ruzalarni o'zlari tanlagan vaqt va tezlikda ko'rish imkoniyatini beradi va shu bilan jarayonni hamma uchun ochiq, samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ammo Moskal va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda, "ma'ruzalarni yozib olish" aralash ta'limning unchalik mashhur bo'lmagan alternativasi sifatida tasvirlangan. Onlayn texnologiyalar uchun talab qilingan ikkita afzallik (uning vaqt va joyni birlashtirish qobiliyati) ma'ruzalarni aralash ta'lim kabi samarali va qiziqarli o'qitish uchun yetarli emasligi ko'rinadi. Boshqa bir masalani ko'rib chiqaylik. Onlayn munozarada bir necha bor ta'kidlangan afzalliklardan biri shundaki, u tortinchoq guruh a'zolariga darsda faol qatnashishga imkon beradi. Shu bilan birga, ba'zi talabalar onlayn munozarada qatnashishda o'zlarini biroz noqulay sezgan holatlari haqidagi dalillar ham mavjud. Demak, shunchaki faoliyatni onlayn tarzda o'tkazish pedagogik yutuqlarni ta'minlash uchun yetarli emas. Ma'ruza uslubi yoki moderasiya uslubi kabi boshqa omillar ham muhim bo'lishi zarur. Grem va Dzyuban tomonidan qayd etilgan tadqiqot natijalari aralashgan ta'lim foydasiga o'zgargan, ammo bu qis-

man uni onlayn usullar uchun yanada qulaylashtirish uchun kurs tarkibidagi o'zgarishlar tufayli kelib chiqqanligini taxmin qilish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni lozimki, aralash ta'limning konseptual va terminologik apparati murakkab tizim asosida qurilgan bo'lib, bu tizim atamaga to'g'ri va muvofiq ta'rif berishdan tortib, uning qay tarzda va sharoitda tashkil etilishigacha bo'lgan elementlarni o'zida qamraydi. Aralash ta'limdan o'quv jarayonida keng foydalanish orqali sohadagi bir qancha muammoli vaziyat va kamchiliklarni bartaraf etish bilan bir qatorda, ta'lim sifatini yanada oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, o'qituvchi→maslahatchi tizimida faoliyat yuritish tizimiga o'tish kabi ijobiy yutuqlarga erishish mumkin. Shuningdek, o'quv va kognitiv jarayonda aralash ta'limdan foydalanish talabada keyingi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur kompetentsiyalarni shakllantirishga imkon beradi. Kelajakda aralash ta'lim elektron ta'limning yangi shakllarini joriy etish va o'quv jarayoni subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqa modellarini ishlab chiqish orqali rivojlanadi, bu universitetning ta'lim va ta'lim muhiti imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va hattoki undan oshib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risda"gi 08.10.2019-yil. URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545887>

2. O.I.Gizatulina International experience and prospects for mixed learning of russian as a foreign language in higher education institutions. Journal of innovations in pedagogy and psychology, Vol. 5, Issue 3, 2022, pp.43-50

3. Komilova M.O. Смешанное обучение в современном образовательном пространстве. Fan ta'lim va amaliyot integratsiyasi.

4. Абрамова Я.К. Смешанное обучение как инновационная образовательная технология. //Перспективы развития информационных технологий. 2014. №17. С. 115-119.

5. Watwood B., Nugent J., Deihl W. Building from Content to Community: Rethinking the Transition to Online Teaching and Learning: A CTE White Paper. – Richmond: Virginia Commonwealth University, 2009. – 22 p. – P. 5.

6. Д.Н.АШУРОВА. АРАЛАШ ТАЪЛИМ МОДЕЛЛАРИ. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2021, No 1(36), 115-127

7. Azamkulovna, P.D. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHI-DEFEKTOLOGLARGA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI OLIB BORISHNI O'RGATISH KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIK KO'RISH OMILI SIFATIDA. Scientific Impulse, 1(5), 413-418.